

BOJXONA SOHASIDA DUAL TA'LIM TIZIMI INTEGRATSIYASI

Rafikova Muattar Ravshanovna

*Bojxona instituti "Ijtimoiy-gumanitar
fanlar" kafedrasi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent, podpolkovnik*

Niyozov Ulug'bek Hoshimjonovich

*Bojxona instituti 1-kurs
525-guruh kursanti*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.12.2025

Revised: 27.12.2025

Accepted: 28.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*dual ta'lim, bojxona tizimi,
amaliy tayyorgarlik, kasbiy
kompetensiya, Bojxona
instituti, kadrlar siyosati.*

*Maqolada dual ta'lim tizimini bojxona
sohasi bilan uyg'unlashtirish zarurati, uning
afzalliklari hamda O'zbekiston bojxona
tizimida qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim
yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek,
Bojxona instituti misolida amaliy ta'limning
natijalari va kelajakdagi istiqbollari
yoritilgan.*

Bugungi globallashuv sharoitida har bir soha, xususan, bojxona tizimi oldida zamon bilan hamnafas bo'lish, xalqaro me'yorlar asosida faoliyat yuritish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va malakali kadrlar bilan ta'minlanish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Dunyo miqyosida savdo hajmlarining ortishi, xalqaro transport yo'laklarining kengayishi, logistika tarmoqlarining rivojlanishi bojxona xodimlaridan nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikma, mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimining sifatini oshirish, ayniqsa, kasbiy sohalarda dual ta'lim tizimini joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida [1] "Har bir inson malakali ta'lim olish huquqiga ega" deb belgilangan bo'lib, bu norma ta'lim sohasidagi islohotlarning huquqiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [2] (yangi tahriri, 2020-yil 23-sentabr)da ta'limning zamonaviy shakllarini joriy etish, jumladan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, o'quv jarayonini amaliyot bilan uzviy bog'lash zarurligi qayd etilgan.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida "ta'lim va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash, yoshlarni real mehnat bozoriga tayyorlash" masalasiga alohida

urg'u berib, ta'limning mazmunini zamon talablari asosida yangilash zarurligini ta'kidlab o'tgan. Shu jihatdan qaraganda, bojxona tizimida kadrlar tayyorlashda dual yondashuvni qo'llash nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki xodimlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga, ularni xizmatga tezroq moslashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti aynan shu maqsadda faoliyat yuritmoqda. Bu o'quv maskani nafaqat nazariy darslarni, balki kursantlarning bojxona postlari, chegara nazorat punktlari, tovar ekspertizasi markazlarida amaliy mashg'ulotlar o'tashini yo'lga qo'ygan. Natijada, bitiruvchilar o'qishni yakunlagach, amaliy xizmatda duch keladigan holatlarni ilgari tajribadan o'tkazgan, real sharoitda ishlay oladigan kadrlar sifatida tayyorlanadi. Shunday qilib, dual ta'lim tizimi — bu oddiy o'qitish usuli emas, balki amaliyotga yo'naltirilgan kadrlar siyosatini shakllantiruvchi kompleks tizimdir. Aynan shu yondashuv asosida O'zbekiston bojxona tizimi uchun raqobatbardosh, mas'uliyatli va zamonaviy fikrlaydigan yosh mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengaymoqda. Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasining "inson kapitalini rivojlantirish" yo'nalishiga hamohang bo'lib, ta'lim va amaliyot integratsiyasi orqali milliy bojxona tizimini yangi bosqichga olib chiqishning muhim garovi hisoblanadi.

Zamonaviy global savdo jarayonlari, xalqaro logistika tizimining kengayishi va bojxona nazorati sohasida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bojxona xodimlaridan yuqori malaka va amaliy tayyorgarlikni talab etmoqda. Shu boisdan, ta'lim tizimida dual yondashuv – ya'ni nazariy bilimni ishlab chiqarish va xizmat amaliyoti bilan birlashtirish – bojxona sohasida zamon talabi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bojxona tizimini modernizatsiya qilishda eng muhim omil – bu bilimli, fidoyi va zamonaviy fikrlaydigan xodimlarni tayyorlashdir." [3, 56 b]

Dual ta'limni bojxona sohasida joriy etishning asosiy maqsadlari juda ham bisyor. Bular:

1. Bojxona xodimlarini zamonaviy talablarga mos, amaliy tayyorgarlikka ega kadr sifatida tayyorlash;

2. Ta'lim muassasalari bilan bojxona idoralari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;

3. Xizmat intizomi va kasbiy kompetensiyani oshirish;

4. Bitiruvchilarni o'qishni tugatgach darhol xizmatga tayyorlash;

5. Bojxona faoliyatida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashni o'rgatish. [4]

Bojxona institutida dual ta'lim amaliyotga nazar solsak, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti dual ta'lim yondashuvini joriy qilgan yetakchi o'quv muassasalardan biridir.

Bu tizim asosida kursantlar ta'lim jarayonining 40–50 foizini nazariy darslarda, 50–60 foizini esa bojxona amaliyot joylarida o'tkazadi.

Kursantlar:

- yuk va transport nazorat punktlarida amaliy xizmat bajaradi,
- hujjatlar bilan ishlashni o'rganadi,
- bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etadi,
- kontrabanda va tovar ekspertizasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'taydi. [5]

Natijada ular bitiruvdan so'ng real xizmat vazifalarini mustaqil bajara oladigan mutaxassislariga aylanadi.

Dual ta'lim tizimining bojxona tizimidagi afzalliklariga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin bo'lib, bular:

- bojxona organlarida kadrlar tayyorlash sifati ortishi
- nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy aloqa mustahkamlanishi
- yosh hodimlarning xizmatga moslashuvi yengillashishi
- rahbar kadrlar uchun seleksiya tizimi soddalashishi
- xizmat intizomi va vatanparvarlik ruhiyati kuchayishi

Xorijiy tajribaga yondashadigan bo'lsak, xalqaro tajribada, xususan, Germaniya, Janubiy Koreya va Rossiyada bojxona akademiyalarida dual ta'lim tizimi keng qo'llaniladi. Masalan, Rossiya Federal bojxona akademiyasida kursantlar haftaning 3 kunini nazariy darslarda, 3 kunini amaliyotda o'tkazadi. Bu yondashuv O'zbekiston bojxona tizimida ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. [6]

Germaniya tajribasi. Germaniya dual ta'lim tizimi muvaffaqiyatli ishlayotgan davlatlar orasida peshqadamdir. Bu tizimda talabalar haftaning bir qismini ta'lim muassasasida, qolgan qismini esa ishlab chiqarishda o'tkazadilar. Germaniyada dual tizimning muvaffaqiyatli bo'lishining asosiy sabablari quyidagilardir: 1. Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan o'quv dasturlari: Korxonalar va ta'lim muassasalari o'quv rejalarini birgalikda ishlab chiqadilar. 2. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Talabalar ishlab chiqarish jarayonida oylik maosh yoki stipendiya oladilar. 3. Davlat tomonidan nazorat: Dual ta'lim davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinadi va sertifikatlashtirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Dual ta'lim tizimi asosan Germaniya, Shveytsariya va Avstriya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ushbu tizimda o'quvchilar, nazariy bilimlarni maktab yoki universitetda olgan holda, ish beruvchi tashkilotlarda o'z malakalarini oshiradilar. Dual ta'lim modeli ilk bor Germaniyada shakllangan va uzoq yillar davomida rivojlanib kelgan. Ushbu tizim, 19-asrning oxirlarida sanoat inqilobi bilan birga boshlanib, ishchilarni texnik malakalar bilan ta'minlashni maqsad qilgan. Germaniya ta'lim tizimida bu modelning muvaffaqiyati boshqa mamlakatlarda ham qo'llanishiga sabab bo'ldi. [7]

Xulosa qilib shuni ayish lozimki dual ta'lim tizimi bojxona sohasida kasbiy tayyorgarlikni oshiruvchi, xizmat samaradorligini ta'minlovchi muhim omildir. Bojxona instituti misolida bu tizim kadrlar sifatini oshirish, yoshlarni real xizmatga tayyorlash va mehnat unumdorligini ko'tarishda o'zini oqlamoqda. Umuman olganda Dual

ta'lim zamonaviy ta'lim tizimida yangi yondashuv sifatida ta'lim va ish bozorini birlashtiruvchi, o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajriba ham taqdim etadigan samarali modeldir. Ushbu tizim, o'quvchilarning ish bozori talablariga moslashishini, malakali mutaxassislarni tayyorlashni va iqtisodiy rivojlanish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi. Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning tajribalari, dual ta'limning ta'lim tizimini yanada sifatli va samarali qilishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. O'zbekistonning ta'lim tizimida ham dual ta'limni joriy etish jarayoni boshlanib, uning rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Bojxona tizimida dual ta'limni keng joriy etish – bu nafaqat zamonaviy kadrlar tayyorlash mexanizmi, balki O'zbekistonning xavfsizligi va iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi strategik yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan: 1992-yil 8-dekabr, Yangi tahriri 2023-yil 30-aprelda tasdiqlangan.

51-modda: “Har bir inson malakali ta'lim olish huquqiga ega”.

2. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun qabul qilingan: 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. 5-va 6-moddalarda ta'limning shakllari, dual ta'limni joriy etish imkoniyatlari haqida qayd etilgan.

3. MIRZIYOYEV Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. [56 b]

4. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – WWW.CUSTOMS.UZ, 2024.

5. Xalq ta'limi vazirligi. Dual ta'lim tizimi joriy etilishi bo'yicha hisobot. -Toshkent, 2023.

6. Bojxona Akademiyasi (ROSSIYA). Dual o'qitish tizimi va amaliy tayyorgarlik konsepsiyasi. -MOSKVA, 2020.

7. GERMANY X. Yo'ldoshev, D. Nishonov. Kasbiy ta'limda dual tizimni joriy etishning xorij tajribalari (Germaniya misolida). -Professional ta'lim jurnali, 2021.